



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

KASBIY TA'LIM DASTURLARINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITASIYASIDAN

O'TKAZISHGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA

QO'LLANMA



www.nqaae.uz

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

**Kasbiy ta'lim dasturlarini
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha
QO'LLANMA**

Toshkent-2026

Mazkur qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritayotgan, idoraviy mansubligi va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, kasbiy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlarini (bundan buyon matnda ta'lim dasturi deb yuritiladi) maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonida ichki (o'zini o'zi) baholashni samarali tashkil etish maqsadida tavsiyaviy uslubiy qo'llanma sifatida ishlab chiqilgan.

Qo'llanma kasbiy ta'lim tashkilotlarida joriy etilayotgan va amaldagi ta'lim dasturlarining davlat ta'lim standartlari va maxsus davlat akkreditatsiyasi yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlariga muvofiqligini baholash jarayoniga tayyorlash hamda ta'lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, qo'llanmada ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonida har bir baholash yo'nalishi, mezon va indikator kesimida tahlil qilish, zarur ma'lumotlarni shakllantirish, baholash natijalarini asoslovchi tegishli dalillar va hujjatlarni aniqlash tartibi bayon etilgan.

Mazkur qo'llanma kasbiy ta'lim tashkilotlarining rahbarlari, ta'lim sifatini ta'minlash bo'linmalari mas'ullari va pedagog xodimlari uchun ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishga tayyorlashda amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

MUNDARIJA

KIRISH.....	5
ASOSIY TUSHUNCHALAR VA ATAMALAR	7
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASI UCHUN ARIZANI RASMIYLASHTIRISH.....	8
ICHKI BAHOLASH HISOBOTINI SHAKLLANTIRISH.....	8
BAHOLASH YO'NALISHLARI, MEZONLARI VA INDIKATORLARI BO'YICHA NATIJALARNI HISOBLASH	10
ICHKI BAHOLASH HISOBOTINI KO'RIB CHIQISH	11
TA'LIM DASTURLARINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISHDA BAHOLASH YO'NALISHLARI, MEZONLARI VA INDIKATORLARI	13
I. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi	13
II. Ta'lim dasturlari yo'nalishi.....	23
III. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi.....	30
IV. O'quvchilar faoliyati yo'nalishi	41
V. Inson resurslari yo'nalishi	49
VI. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi	57
ICHKI BAHOLASH NATIJALARI BO'YICHA XULOSA	73
ICHKI BAHOLASH HISOBOTI UCHUN NAMUNAVIY JADVALLAR	74
FOYDALANILGAN MANBALAR	90
QAYDLAR UCHUN	91

QO'LLANILGAN QISQARTMA SO'ZLAR

ARM	Axborot resurs markazi
AKT	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
DTS	Davlat ta'lim standarti
LMS	Ta'limni boshqarish tizimi
YDA	Yakuniy davlat attestatsiyasi
EMIS PT	Kasbiy ta'lim tashkilotida axborot tizimlari

KIRISH

Ushbu qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF-76-son Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarorida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonida ichki baholashni samarali tashkil etishga uslubiy jihatdan ko'mak berish maqsadida ishlab chiqilgan.

Shuningdek, qo'llanmada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi direktorining 2025-yil 14-noyabrdagi "Kasbiy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda baholash mezonlari bo'yicha indikatorlarni tasdiqlash haqida" 3-son buyrug'i (ro'yxat raqami: 3717) bilan tasdiqlangan kasbiy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda baholash mezonlari bo'yicha indikatorlarga tegishli ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim qilishga uslubiy tavsiyalar beriladi.

Qo'llanma ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonini yagona talablar asosida tashkil etish, ichki baholash hisobotini to'g'ri shakllantirish, asoslantiruvchi hujjatlarni yig'ish va tashqi baholash jarayoniga samarali tayyorlash yuzasidan uslubiy yordam beradi.

Shuningdek, ichki baholash hisobotini tayyorlash bo'yicha yagona yondashuvlarga rioya qilinishini ta'minlash tashqi baholash jarayonida ekspert komissiyalarining ish samaradorligini oshiradi.

Ichki baholash hisoboti tegishli baholash yo'nalishlari va mezonlariga muvofiq ma'lumotlarni tahlil qilishga bag'ishlangan qismlar va boblardan iborat tahliliy ma'lumotnoma shaklida tayyorlanadi.

Ta'lim dastur(lar)ini ichki baholash hisoboti ekspert komissiyalari tashqi baholash jarayonida to'liq ma'lumot olish, shuningdek, tegishli ta'lim dastur(lar)ini sifatini baholash uchun foydalaniladi.

Ta'lim tashkiloti ichki baholash hisobotini ishchi guruh tuzgan holda tayyorlashi mumkin.

Ichki baholash hisobotini tayyorlashda:

- mazkur qo'llanmada belgilangan ketma-ketlikda shakllantirish;
- har bir berilgan hujjat va ma'lumotlarni aniq, tushunarli va dalillar bilan asoslantirish;
- davlat tili qoidolari va talablariga amal qilish;
- rasmiy doirada keng foydalaniladigan so'z va atamalarni qo'llash;
- istiqbolli rejalar, loyihalar va kutilayotgan natijalarni aniq ko'rsatish;

- har bir baholash indikatori bo'yicha qisqa, aniq hamda dalillarga asoslangan ma'lumotlarni kiritish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi (keyingi o'rinlarda — Agentlik) davlat akkreditatsiyasini o'tkazish bo'yicha maxsus vakolatli organ hisoblanadi.

ASOSIY TUSHUNCHALAR VA ATAMALAR

Ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish bilan bog'liq hujjatlarni shakllantirishda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va qonunosti hujjatlari hamda tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan asosiy tushunchalar va atamalardan foydalanilishi shart.

Shuningdek, ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishning ichki baholash hisobotini shakllantirish Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarorida va ushbu qo'llanmada qo'llanilgan asosiy tushunchalar hamda atamalardan foydalanilgan holda amalga oshiriladi.

Quyidagi tushunchalar va atamalar davlat akkreditatsiyasi jarayonlarida keng qo'llaniladi:

davlat akkreditatsiyasi — ta'lim tashkiloti faoliyati davlat ta'lim standartlari (talablari) va ta'lim dasturlariga muvofiqligini aniqlashga qaratilgan kompleks yoki maxsus davlat akkreditatsiyasini o'z ichiga oluvchi jarayon;

baholash yo'nalishi — davlat akkreditatsiyasi doirasida sifat va samaradorlikni baholash uchun belgilangan asosiy yo'nalishlar majmui bo'lib, boshqaruv, ta'lim sifati, o'quv jarayoni, inson resurslari, ta'lim oluvchilar faoliyati hamda moddiy-texnik baza kabi yo'nalishlarni qamrab oladi;

mezon — muayyan baholash yo'nalishida ta'lim tashkiloti (dasturi)ning sifatiga qo'yiladigan minimal talablar va standartlar majmui;

indikator — belgilangan mezon bajarilishini aniq, o'lchab bo'ladigan va asoslantiruvchi dalillar bilan tasdiqlanadigan ko'rsatkich;

asoslantiruvchi dalillar — mezon yoki indikatorlarga tegishli hujjatlar, ma'lumotlar, statistika, foto/video materiallar yoki boshqa aniq asoslar;

ichki baholash hisoboti — ta'lim tashkilotining ta'lim dasturini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish bo'yicha tayyorlanadigan hujjat bo'lib, ta'lim tashkilotining ta'lim dasturini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda baholash yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlariga mosligi haqidagi tahlillar, dalillar va xulosalarni o'z ichiga oladi.

MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASI UCHUN ARIZANI RASMIYLASHTIRISH

Ta'lim dasturini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish to'g'risidagi arizalar Agentlikning ta'lim tashkilotlarini davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish va reytingini yuritish bo'yicha **"accreditation.nqaae.uz"** axborot tizimi orqali elektron shaklda qabul qilinadi.

Davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish to'g'risidagi arizani shakllantirish, qo'shimcha hujjatlarni taqdim qilish va ularni ko'rib chiqish Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida" nizomda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ta'lim dasturini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda ta'lim tashkilotining qonuniy vakili yoki ariza beruvchi belgilangan talablar asosida ariza topshirish, yig'implarni belgilangan muddatlarda amalga oshirish, Agentlik va ta'lim tashkiloti o'rtasida shartnomani rasmiylashtirish, ekspert komissiyasi (joyiga chiqqan holda) akkreditatsiya jarayonini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga hamda ma'lumotlarni belgilangan muddatlarda taqdim qilishga mas'ul hisoblanadi.

ICHKI BAHOLASH HISOBOTINI SHAKLLANTIRISH

Ta'lim tashkiloti tomonidan tayyorlangan ichki baholash hisobotida davlat akkreditatsiyasi mezonlari asosida ta'lim dasturini dalillarga tayangan holda real holatini tahlil qilish, baholash va uni takomillashtirish choralarini belgilaydi va unda keltirilgan ma'lumotlar ekspert komissiyalari tomonidan ta'lim dasturini tashqi baholash jarayonlarida foydalaniladi.

Ta'lim tashkiloti tomonidan tayyorlangan ichki baholash hisoboti davlat akkreditatsiyasi mezonlari asosida ta'lim dasturining kuchli va takomillashtirish lozim bo'lgan jihatlarini aniqlash, ta'lim sifatini doimiy yaxshilashga qaratilgan xulosa va takliflarni shakllantirish, shuningdek, maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tish uchun ishonchli ma'lumotlar bazasini tayyorlash maqsadida ishlab chiqiladi.

Akkreditatsiya yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlariga qat'iy muvofiqlikni ta'minlash uchun hisobot amaldagi maxsus davlat akkreditatsiyasi baholash yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlariga mos bo'lishi shart. Bunda, har bir indikator bo'yicha joriy holat, dalillar va xulosalar aniq yoritilishi lozim.

E'TIBOR BERING!!!

Ichki baholash hisobotini to'g'ri shakllantirishda mazkur qo'llanmaning **“Ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda baholash yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlari”** bo'limida har bir indikator bo'yicha tavsiya etilgan savollardan hamda asoslovchi dalillar (hujjatlar) ro'yxatidan foydalangan holda aniq va asosli ma'lumotlar kiritilishi lozim.

Shuningdek, kiritilgan ma'lumotlar va ularning asoslovchi dalillari (hujjatlar) elektron shaklda platformaga yuklanishi shart.

Ichki baholash hisobotiga kiritilgan asoslanmagan hamda umumiy bayon etilgan ma'lumotlar hisobot sifatida qabul qilinmaydi.

Ichki baholash hisoboti rasmiy hujjatlar, ma'lumotlar (statistika), so'rovnoma va fikr-mulohazalar tahlili bilan dalillarga asoslanishi (Evidence-based approach) shart.

Hisobotning haqqoniyligi va tanqidiy yondashuvni ta'minlash uchun real holatni aks ettirishi, sun'iy “yuqori baholash”dan holi bo'lishi, kamchiliklar ochiq va aniq ko'rsatilishi, sabablar tahlil qilinib, aniq yechimlar taklif qilinishi lozim.

Hisobotni milliy va xalqaro standartlar bilan uyg'un holda akkreditatsiya mezonlari, shuningdek, xalqaro yondashuvlar (EQAVET, ISO 21001) bilan aks ettirilishi maqsadga muvofiq.

Hisobotda keltirilgan ma'lumotlarning dolzarbligini oshirish uchun pedagoglar, ish beruvchilar va boshqa manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari inobatga olinishi shart hisoblanadi.

Hisobot ta'lim tashkiloti rahbari tomonidan tasdiqlanishi va elektron (zarur hollarda qog'oz) shaklda saqlanishi hamda Agentlikka tayyor holatda (platforma orqali) taqdim etilishi lozim.

BAHOLASH YO'NALISHLARI, MEZONLARI VA INDIKATORLARI BO'YICHA NATIJALARNI HISOBLASH

Baholash mezonlari majburiy va umumiy indikatorlarga bo'linadi hamda “muvofiq” yoki “muvofiq emas” tarzida baholanadi.

Tashqi baholash mezonlari majburiy va umumiy mezonlarga bo'linadi hamda har bir mezon “muvofiq”, “qisman muvofiq” yoki “muvofiq emas” deb baholanadi.

Tashqi baholash mezonlarining muvofiqligi majburiy va umumiy indikatorlar bo'yicha quyidagi tartibda aniqlanadi:

60 foiz va undan ortiq indikatorlar “muvofiq” deb baholansa — mezon “muvofiq”;

50 foizdan 60 foizgacha indikatorlar “muvofiq” deb baholansa — mezon “qisman muvofiq”;

50 foizgacha indikatorlar “muvofiq” deb baholansa — mezon “muvofiq emas” deb baholanadi.

Mezon tarkibidagi mavjud majburiy indikator (majburiy indikatorlardan biri) “muvofiq emas” deb topilsa, umumiy natijadan qat'i nazar, ushbu mezon “muvofiq emas” deb baholanadi.

Har bir baholash yo'nalishi “muvofiq” yoki “muvofiq emas” deb e'tirof etiladi. Bunda har bir baholash yo'nalishi quyidagi shartlar bajarilganda “muvofiq” deb baholanadi:

majburiy mezonlarning barchasi “muvofiq” deb baholanganda;

umumiy mezonlarning ko'pi bilan ikkitasi “qisman muvofiq” deb baholanganda;

“muvofiq emas” deb baholangan mezonlar mavjud bo'lmaganda.

Akkreditatsiya komissiyasi tomonidan har bir baholash yo'nalishi “muvofiq” deb e'tirof etilganda, ushbu ta'lim dasturi **“davlat akkreditatsiyasidan o'tdi”** deb, “muvofiq emas” deb e'tirof etilganda esa **“davlat akkreditatsiyasidan o'tmadi”** deb qaror qabul qilinadi.

ICHKI BAHOLASH HISOBOTINI KO'RIB CHIQISH

Ta'lim sifatini tashqi baholash uchun Agentlik tomonidan ekspert komissiyasi tashkil etiladi. Ekspert komissiyasi kasb va mutaxassisliklar xususiyatidan kelib chiqqan holda tuziladi.

Ekspert komissiyasi tarkibi ta'lim tashkilotlarining pedagog va rahbar xodimlari, ilmiy-tadqiqot institutlarining yetakchi olimlari, respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mas'ul xodimlari, ish beruvchi korxona (tashkilot)larining mutaxassislari, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari hamda o'quvchilar orasidan shakllantiriladi. Ekspert komissiyalari tarkibiga xorijiy ekspertlar ham jalb etilishi mumkin.

Ekspert komissiyasining vazifalari quyidagilardan iborat:

ichki baholash natijalari bo'yicha olingan ma'lumotlarni ekspertizadan o'tkazish hamda tashqi baholashni amalga oshirish;

ta'lim dasturi ta'lim sifati va mazmunining davlat ta'lim standartlari (talablari), akkreditatsiya mezonlariga muvofiqligini baholash;

ta'lim sifatini oshirish va ta'lim xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar berish hamda tashqi baholash natijalari yuzasidan hisobotni tayyorlash va Akkreditatsiya komissiyasiga taqdim etish.

Ichki baholash hisoboti mazkur **qo'llanmaning ilovasida keltirilgan namuna** asosida shakllantiriladi.

Ta'lim tashkiloti ichki baholash natijasida shakllantirilgan hisobot va unga tegishli materiallarni elektron va (yoki) qog'oz shaklida tasdiqlangan holda, tashqi baholash boshlanishidan kamida **bir oy oldin** Agentlikka taqdim etadi.

Ekspert komissiyasi ichki baholash hisobotini o'rganadi va undan tashqi baholash jarayonida foydalanadi. Ekspert komissiyasi tomonidan ta'lim dasturini tashqi baholash joyiga chiqqan holda **besh ish kunidan oshmagan muddatda** o'tkaziladi.

Tashqi baholash jarayonida ichki baholash hisobotida haqqoniy bo'lmagan ma'lumotlar aniqlanishi, shuningdek, belgilangan muddatlarda hujjatlar va ma'lumotlarning taqdim qilinmasligi yoki kamchiliklarning bartaraf etilmasligi davlat akkreditatsiyasidan o'tkazmaslik uchun asos bo'ladi.

Dastlabki hisobot tashqi baholash natijalari asosida ekspert komissiyasi tomonidan tayyorlanadi va hisobotning xulosasi Agentlik orqali ta'lim tashkilotiga taqdim qilinadi.

Ta'lim tashkiloti dastlabki hisobot bo'yicha asoslantirilgan taklif va e'tirozlarini Agentlikka **uch ish kuni ichida** rasman taqdim etadi. Taqdim etilgan taklif va

e'tirozlarni tahlil qilgan holda ekspert komissiyasi tomonidan yakuniy hisobot tayyorlanadi.

Ta'lim tashkiloti tomonidan taqdim qilingan ichki baholash hisoboti asosida ekspert komissiyasi joyiga chiqmasdan, masofaviy shaklda tashqi baholashni amalga oshirishi mumkin.

TA'LIM DASTURINI BAHOLASH YO'NALISHLARI, MEZONLARI, INDIKATORLARI

Ta'lim dasturlari maxsus davlat akkreditatsiyasida **6 ta** yo'nalish, **31 ta** mezon hamda **163 ta** indikator asosida baholanadi.

Maxsus davlat akkreditatsiyasidan yangi tashkil etilgan ta'lim dasturlari, shuningdek, amaldagi ta'lim dasturlari ham o'tkazilganligi sababli, ma'lum indikatorlar faqat amaldagi ta'lim dasturlari uchun tatbiq etiladi.

Majburiy mezon va indikatorlar (*) bilan belgilangan.

Amaldagi ta'lim dasturlari uchun foydalaniladigan indikatorlar () bilan belgilangan.**

I. TASHKILIY-BOSHQARUV VA SIFATNI TA'MINLASH YO'NALISHI

***Izoh:** ta'lim dasturi bo'yicha tashkiliy-boshqaruv jarayonini samarali yo'lga qo'yish va tizimli boshqarish, sifatni ta'minlash va takomillashtirish yuzasidan kasbiy ta'lim tashkilotining faoliyati baholanadi*

1-MEZON. Ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi*

***Izoh:** ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tashkiliy va funksional tarkibiy tuzilmaning (kafedra, bo'lim) mavjudligi hamda uning faoliyati to'g'ri yo'lga qo'yilganligi baholanadi*

1.1. INDIKATOR

Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy tuzilmani (kafedrani, bo'limni) (bundan buyon matnda tarkibiy tuzilma deb yuritiladi) tashkil etish hamda uni moddiy-texnik baza va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejalar mavjud*

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy tuzilma qanday tartibda tashkil etilgan?

❖ Tarkibiy tuzilmaning moddiy-texnik bazasi qanday ta'minlangan va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash yuzasidan qanday rejalar tuzilgan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Tarkibiy tuzilma buyrug'i;

✓ Moliyaviy reja.

1.2. INDIKATOR

Tarkibiy tuzilmaning vakolatlari, vazifalari va funksiyalari ta'lim dasturini samarali amalga oshirishga yo'naltirilgan va ta'lim dasturi doirasida belgilangan maqsadlarga uyg'un tarzda aniq belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ Tarkibiy tuzilmaning vakolatlari, vazifalari va funksiyalari ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun qanday yo'naltirilgan?

❖ Tarkibiy tuzilmaning vakolatlari, vazifalari va funksiyalarning ta'lim dasturi doirasida belgilangan maqsadlar bilan uyg'unligi qanday ta'minlangan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Tarkibiy bo'linmalarining nizomi;
- ✓ Tarkibiy tuzilmaning ish rejasi (amaldagi ta'lim dasturlari).

1.3. INDIKATOR

Tarkibiy tuzilma tomonidan ta'lim dasturini mehnat bozori talablariga va texnologik o'zgarishlarga muvofiq takomillashtirish mexanizmlari mavjud

Yordamchi savollar:

❖ Tarkibiy tuzilma tomonidan ishlab chiqilgan takomillashtirish mexanizmlarida mehnat bozori talablari va texnologik o'zgarishlar qanday inobatga olingan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Takomillashtirish tartibi.

1.4. INDIKATOR

Ta'lim dasturini samarali amalga oshirishi uchun tarkibiy tuzilma moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari bilan ta'minlanib boriladi hamda tarkibiy tuzilmaning ish rejalarini mavjud**

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun tarkibiy tuzilma moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari bilan qanday ta'minlanib boriladi?

❖ Tarkibiy tuzilmaning ish rejalarida qanday vazifalar belgilanadi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Xarajatlar smetasi;
- ✓ Shtatlar jadvali;
- ✓ Tarkibiy tuzilmaning ish rejalarini.

1.5. INDIKATOR

Tarkibiy tuzilma tomonidan ta'lim dasturining mehnat bozori talablariga muvofiqligi va natijadorligi ko'rib chiqilib, tahliliy ma'lumotlar tayyorlab boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ Tarkibiy tuzilma tomonidan tayyorlangan tahliliy ma'lumotlarda ta'lim dasturining mehnat bozori talablariga muvofiqligi va natijadorligi qanday aniqlanadi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Tahliliy ma'lumot.

1.6. INDIKATOR

Tayyorlangan tahliliy ma'lumotlar asosida tarkibiy tuzilma tomonidan chora-tadbirlar rejasi tizimli ravishda ishlab chiqiladi, amalga oshiriladi hamda ijrosi nazorat qilinadi**

Yordamchi savollar:

❖ Tayyorlangan tahliliy ma'lumotlar asosida tarkibiy tuzilma tomonidan qanday muammolar aniqlangan va ustuvor yo'nalishlar belgilanadi?

❖ Muammolar va ustuvor yo'nalishlar yuzasidan chora-tadbirlar rejasi qanday tartibda ishlab chiqiladi hamda unda vazifalar, ijrochilar, muddatlar va kutilayotgan natijalar qanday belgilanadi?

❖ Chora-tadbirlar rejasi ijrosi qanday tartibda nazorat qilinib boriladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Chora-tadbirlar rejasi;

✓ Chora-tadbirlar ijrosi hisobotlari.

2-MEZON. Ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 3 yillik istiqbolli rejaning (bundan buyon matnda istiqbolli reja deb yuritiladi) mavjudligi

Izoh: ta'lim dasturining rivojlanishi va moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun istiqbolli rejaning mavjudligi, shuningdek ushbu rejaning maqsad va vazifalari kutilgan o'quv natijalari, mehnat bozori talablari va tashkilot strategiyasi bilan uyg'unligi baholanadi

2.1. INDIKATOR

Istiqbolli reja ishlab chiqilgan va kasbiy ta'lim tashkilotining strategik rejasi (missiyasi, strategiyasi) bilan mos

Yordamchi savollar:

❖ Istiqbolli rejani ishlab chiqishda qanday vazifa va mas'ullar belgilangan?

❖ Istiqbolli rejaning kasbiy ta'lim tashkilotining strategik rejasi (missiyasi, strategiyasi) bilan mosligi qanday ta'minlangan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Istiqbolli reja.

2.2. INDIKATOR

Istiqbolli rejada ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik baza, infratuzilma, axborot texnologiyalari, inson resurslari, moliyaviy manbalar va ish beruvchilar bilan hamkorlik masalalari aks ettirilgan hamda ushbu rejadagi vazifalarni bajarish muddatlari va mas'ul ijrochilar aniq ko'rsatilgan

Savollar:

❖ Istiqbolli rejada ta'lim dasturi uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik baza, infratuzilma, axborot texnologiyalari, inson resurslari va moliyaviy manbalar qanday aniqlangan?

❖ Istiqbolli rejada ish beruvchilar bilan hamkorlik masalalari qanday aks ettirilgan?

❖ Istiqbolli rejada vazifalarni bajarish muddatlari va mas'ul ijrochilar belgilanishi qanday ta'minlangan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Istiqbolli reja.

2.3. INDIKATOR

Istiqbolli rejada belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ta'sir qiluvchi xavf tahlili mavjud hamda ushbu xavflarni bartaraf etish bo'yicha muqobil choralar belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ Istiqbolli rejada belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ta'sir qiluvchi xavf tahlili qanday amalga oshirilgan va aniqlangan?

❖ Aniqlangan xavflarni bartaraf etish bo'yicha qanday muqobil choralar belgilangan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Xavflar tahlili bo'yicha ma'lumot.

2.4. INDIKATOR

Istiqbolli rejada belgilangan vazifalarning bajarilishini monitoring va tahlil mexanizmlari ishlab chiqilib, monitoring va tahlil natijalarida aniqlangan kamchiliklarni tuzatish choralari ko'rib boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ Istiqbolli rejada belgilangan vazifalarning bajarilishini qanday monitoring va tahlil qilib boriladi?

❖ Monitoring va tahlil natijalari asosida aniqlangan kamchiliklarni tuzatish bo'yicha qanday choralar ko'rib boriladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Monitoring va tahlil natijalari bo'yicha ma'lumot.

3-MEZON. Ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani

Izoh: ta'lim dasturi sifati va natijadorligini ta'minlovchi ichki sifat tizimining mavjudligi hamda pedagoglar, ish beruvchilar, o'quvchilar, ota-onalar ishtiroki baholanadi

3.1. INDIKATOR

Ta'lim dasturini monitoring va tahlil qilish bo'yicha sifatni ichki ta'minlash bo'linmasi tashkil etilgan yoki mas'ul xodim(lar) ajratilgan

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim tashkilotida ta'lim sifatini ta'minlashga mas'ul bo'linma qanday tartib asosida tashkil etilgan?

❖ Ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha mas'ul xodim(lar) qanday tartib asosida ishga olingan va rasmiylashtirilgan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Mas'ul bo'linma yoki xodim(lar)ni buyrug'i;

✓ Bo'linma nizomi.

3.2. INDIKATOR

Ta'lim dasturini ichki baholash tartibi ishlab chiqilgan hamda pedagogik (metodik) kengash va ish beruvchilar muhokamasidan o'tkazilgan holda tasdiqlangan

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim dasturini ichki baholash tartibi qanday vazifalarni o'z ichiga olgan?

❖ Ta'lim dasturini pedagogik (metodik) kengash muhokamasidan o'tkazish qanday tashkil etilgan va tasdiqlangan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Tasdiqlangan ichki baholash tartibi;

- ✓ Pedagogik kengash bayonnomasidan ko'chirma.

3.3. INDIKATOR

Pedagoglar, ish beruvchilar, o'quvchilar, shuningdek ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning (bundan buyon matnda ota-onalar deb yuritiladi) takliflari hamda fikr-mulohazalari asosida ta'lim dasturi muntazam takomillashtiriladi hamda sifatni ichki ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar rejasi shakllantirib boriladi**

Yordamchi savollar:

- ❖ Ta'lim dasturi ich beruvchilar, pedagoglar, o'quvchilar, shuningdek ota-onalar taklif va fikr-mulohazalari asosida qanday takomillashtirib boriladi?
- ❖ Ish beruvchilar, pedagoglar, o'quvchilar, shuningdek ota-onalar taklif va fikr-mulohazalari asosida chora-tadbirlar rejasi qanday shakllantiriladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Ta'lim dasturini takomillashtirilganligi bo'yicha ma'lumot;
- ✓ Chora-tadbirlar rejasi.

3.4. INDIKATOR

Ta'lim dasturini takomillashtirish va sifatni ichki ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan monitoring va tahlil ishlari amalga oshirilib, ta'lim dasturi takomillashtirilib boriladi**

Yordamchi savollar:

- ❖ Ta'lim dasturini takomillashtirish va sifatni ichki ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalar ijrosi qanday monitoring va tahlil qilinib boriladi?
- ❖ Monitoring va tahlil natijalari asosida ta'lim dasturini takomillashtirish bo'yicha qanday ishlar amalga oshiriladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Monitoring va tahlil natijalari bo'yicha ma'lumot;
- ✓ Takomillashtirilgan ta'lim dasturi.

3.5. INDIKATOR

Ta'lim dasturini takomillashtirish haqidagi ma'lumotlar kasbiy ta'lim tashkilotining veb-sayti va (yoki) ijtimoiy tarmoqlarida ochiq e'lon qilib boriladi**

Yordamchi savollar:

- ❖ Ta'lim dasturini takomillashtirishga oid ma'lumotlar ta'lim tashkilotining veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarida qanday tartibda e'lon qilib boriladi?

❖ **Asoslantiruvchi hujjat (lar):**

- ✓ E'lon qilingan materiallar (skrinshot yoki havola).

4-MEZON. Mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi

Izoh: ta'lim olish va mehnat bozori, shu jumladan tarmoqlar va sohalarning kadrlarga bo'lgan ehtiyojlari tahlil qilinadigan, shuningdek ilmiy yo'nalishlar tendensiyalarini ta'lim dasturiga integratsiya qilinishini ta'minlaydigan monitoring tizimining mavjudligi hamda ushbu tizimning samaradorligi baholanadi

4.1. INDIKATOR

Mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari, shuningdek ilmiy-tadqiqot tendensiyalarini o'rganish uchun monitoring o'tkazish rejasi ishlab chiqilgan va tasdiqlangan

Yordamchi savollar:

- ❖ Mehnat bozori, ta'lim ehtiyojlari va ilmiy-tadqiqot tendensiyalarini o'rganish uchun monitoring rejasi qanday masalalarni o'z ichiga olgan holda ishlab chiqilgan va tasdiqlangan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Monitoring rejasi.

4.2. INDIKATOR

Monitoring jarayonida pedagoglar, ish beruvchilar va soha mutaxassislarining ishtiroki ta'minlanib, mehnat bozori va ta'lim sohasiga oid ma'lumotlar muntazam yig'iladi, tahlil qilinadi va baholanadi**

Yordamchi savollar:

- ❖ Monitoring jarayonida pedagoglar, yuqori turuvchi tashkilot mas'ullari va soha mutaxassislarining ishtiroki qanday ta'minlanib boriladi?
- ❖ Pedagoglar, ish beruvchilar va soha mutaxassislari tomonidan mehnat bozori va ta'lim sohasiga oid ma'lumotlar qanday davriylikda yig'iladi va tahlil qilinadi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Tahliliy ma'lumot.

4.3. INDIKATOR

Monitoring natijalari asosida ta'lim dasturini takomillashtirish uchun zarur bo'lgan muammo va kamchiliklar aniqlanadi hamda ta'lim dasturidagi fanlar (modullar) va amaliyot mashg'ulotlariga (mavzu(lar)iga va mazmuniga) tegishli o'zgartirishlar kiritib boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ Monitoring natijalari asosida ta'lim dasturini takomillashtirish uchun zarur bo'lgan muammo va kamchiliklar qanday aniqlanadi?

❖ Monitoring natijalari asosida ta'lim dasturidagi fanlar (modullar) va amaliyot mashg'ulotlariga (mavzu(lar)iga va mazmuniga) qanday o'zgartirishlar kiritib boriladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Kiritilgan o'zgartirishlar tahlili.

4.4. INDIKATOR

Ilmiy-tadqiqot yo'nalishlaridagi yangiliklar va mehnat bozori talablari asosida doimiy yangilanuvchi ma'lumotlar bazasi yaratib boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ Ilmiy-tadqiqot yo'nalishlaridagi yangiliklar va mehnat bozori talablari asosida doimiy yangilanuvchi ma'lumotlar bazasi qanday shakllantirilib va yangilanib boriladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Yangilanuvchi ma'lumotlar bazasi bo'yicha ma'lumot.

4.5. INDIKATOR

Mehnat bozori va ta'lim sohasiga oid ma'lumotlar pedagoglar, ish beruvchilar, o'quvchilar, ota-onalar va soha mutaxassislari uchun ochiq tarzda e'lon qilib boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ Mehnat bozori va ta'lim sohasiga oid ma'lumotlar ta'lim tashkilotining veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarida qanday tartibda e'lon qilib boriladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ E'lon qilingan materiallar (skrinshot yoki havola).

5-MEZON. Amaldagi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quvchilar o'rtasida so'rovnoma o'tkazilgani va uning natijalari asosida ta'lim dasturlarining takomillashtirilgani

Izoh: ta'lim dasturining mazmuni va ijrosi bo'yicha o'quvchilarning fikrini so'rovnoma, intervyu va fokus-guruhlar orqali tizimli ravishda yig'ish hamda natijalarni tahlil qilgan holda ta'lim dasturini takomillashtirish holati baholanadi.

5.1. INDIKATOR

Amaldagi ta'lim dasturini baholash va takomillashtirish bo'yicha so'rovnoma, intervyu va fokus-guruhlar (bundan buyon matnda so'rovnoma deb yuritiladi),

ularning mavzulari, savollar (masalalar) ro'yxati, so'rovnomani o'tkazish muddatlari hamda mas'ul ijrochilar belgilab boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ Amaldagi ta'lim dasturini baholash va takomillashtirish bo'yicha so'rovnoma(lar) qanday tashkil etib boriladi?

❖ So'rovnoma mavzulari, savollar (masalalar) ro'yxati, so'rovnomani o'tkazish muddatlari hamda mas'ul ijrochilar qanday belgilab boriladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ So'rovnoma savollari ro'yxati:

✓ So'rovnoma o'tkazish reja-grafigi.

5.2. INDIKATOR

O'tkaziladigan so'rovnomalar to'g'risida o'quvchilar muntazam xabardor qilinadi hamda tizimli ravishda ularning ishtirokini ta'minlash choralari ko'riladi**

Yordamchi savollar:

❖ O'tkaziladigan so'rovnomalar to'g'risida o'quvchilar qanday davriylikda xabardor qilinib boriladi?

❖ So'rovnomalarda o'quvchilarning tizimli ishtirokini ta'minlash bo'yicha qanday choralar ko'riladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ So'rovnoma jarayoni bo'yicha ma'lumot.

5.3. INDIKATOR

So'rovnoma jarayonlari ochiqlik, tenglik va xolislik tamoyillari asosida tashkil etiladi**

Yordamchi savollar:

❖ Amaldagi ta'lim dasturi bo'yicha o'tkazilgan so'rovnoma jarayonlarida ochiqlik, tenglik va xolislik qanday ta'minlanadi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ So'rovnoma bo'yicha ma'lumot.

5.4. INDIKATOR

O'tkazilgan so'rovnoma natijalari mas'ul ijrochilar tomonidan tahlil qilinib, o'quvchilarning ta'lim dasturini takomillashtirishga oid taklif va fikr-mulohazalari muntazam yig'iladi**

Yordamchi savollar:

❖ O'tkazilgan so'rovnoma natijalari mas'ul ijrochilar tomonidan qanday tahlil qilinadi?

❖ O'quvchilarning ta'lim dasturini takomillashtirishga oid taklif va fikr-mulohazalari qanday davriylikda yig'iladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ O'tkazilgan so'rovnoma natijalari bo'yicha ma'lumot;
- ✓ Ta'lim dasturini takomillashtirishga oid taklif va fikr-mulohazalar yuzasidan ma'lumot.

5.5. INDIKATOR

So'rovnoma natijalari bo'yicha tahliliy hisobot tayyorlanib, pedagogik (metodik) kengashga taqdim etib boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ So'rovnoma natijalari bo'yicha tahliliy hisobotda qanday ma'lumotlar keltiriladi?

❖ So'rovnoma natijalari bo'yicha pedagogik kengashda qanday masalalar muhokama qilinadi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ So'rovnoma natijalari bo'yicha tahliliy hisobot;
- ✓ Pedagogik kengash bayonnomasidan ko'chirma.

5.6. INDIKATOR

Tayyorlangan tahliliy hisobot asosida ta'lim dasturini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi tizimli ravishda ishlab chiqiladi va ta'lim dasturiga zarur o'zgartirishlar kiritib boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ Tayyorlangan tahliliy hisobot asosida ta'lim dasturini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi qanday vazifalar belgilanib boriladi?

❖ Tayyorlangan tahliliy hisobot asosida ta'lim dasturiga qanday o'zgartirishlar kiritib boriladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Tahliliy hisobot;
- ✓ Chora-tadbirlar rejasi;
- ✓ O'zgartirishlar kiritilgan ta'lim dasturi.

5.7. INDIKATOR

So'rovnoma natijalari va ular asosida amalga oshirilgan o'zgarishlar haqida ma'lumotlar kasbiy ta'lim tashkilotining veb-sayti va (yoki) ijtimoiy tarmoqlarida ochiq e'lon qilib boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ So'rovnoma natijalari va ular asosida amalga oshirilgan o'zgarishlar haqida ma'lumotlar ta'lim tashkilotining veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarida qanday tartibda e'lon qilib boriladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ E'lon qilingan materiallar (screenshot yoki havola).

II. TA'LIM DASTURLARI YO'NALISHI

Izoh: ta'lim dasturining Milliy malakalar ramkasi, davlat ta'lim standarti va kasbiy standart(lar) (yoki malaka talablariga) muvofiqligi, ta'lim dasturining fanlararo integratsiyasi, tabaqalashtirilgan va o'quvchiga yo'naltirilgan ta'limni ta'minlash darajasi baholanadi.

6-MEZON: Manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti (bundan buyon matnda DTS deb yuritiladi) va milliy malakalar ramkasi (bundan buyon matnda MMR deb yuritiladi) talablariga muvofiqligi*

Izoh: ta'lim dasturi loyihasi ish beruvchilar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgani, ta'lim dasturining kutilgan o'quv natijalari (learning outcomes) va maqsadlarining MMR, DTS va kasbiy standart(lar)ga (yoki malaka talablariga) mosligi baholanadi.

6.1. INDIKATOR

Ta'lim dasturini ishlab chiqish tartibi mavjud, shu jumladan ta'lim dasturining maqsadi, kompetensiyalari hamda kutilgan o'quv natijalari belgilangan hamda ta'lim dasturini ishlab chiqish bo'yicha pedagoglar, soha mutaxassislari va ish beruvchilardan iborat ishchi guruh tashkil etilgan*

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim dasturini ishlab chiqish bo'yicha qanday tartib mavjud?

❖ Ta'lim dasturining maqsadi, kompetensiyalari hamda kutilgan o'quv natijalari qanday belgilangan?

❖ Ta'lim dasturini ishlab chiqish bo'yicha pedagoglar, soha mutaxassislari va ish beruvchilardan iborat ishchi guruh qanday tashkil etilgan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Ta'lim dasturini ishlab chiqish bo'yicha ma'lumot.

- ✓ Ishchi guruhni tashkil qilish yuzasidan buyruq.

6.2. INDIKATOR

Ta'lim dasturining mazmuni DTS, MMR, kasbiy standart(lar) (yoki malaka talablari) hamda mehnat bozori talablariga mosligi bo'yicha tahlil qilingan

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim dasturining mazmuni DTS, MMR, kasbiy standart(lar) (yoki malaka talablari) hamda mehnat bozori talablariga mosligi bo'yicha qanday tahlillar amalga oshirilgan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Tahliliy ma'lumot.

6.3. INDIKATOR

Tahlil natijalari asosida ta'lim dasturining kutilgan o'quv natijalari va maqsadlari aniqlashtirilgan, kamchiliklar yuzasidan xulosalar tayyorlangan

Yordamchi savollar:

❖ Tahlil natijalari asosida ta'lim dasturining kutilgan o'quv natijalari va maqsadlari qanday aniqlashtirilgan?

❖ Tahlil natijalari asosida aniqlangan kamchiliklar yuzasidan xulosalarda qanday ma'lumotlar yoritilgan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Tahlil natijalari bo'yicha ma'lumot.

6.4. INDIKATOR

Ta'lim dasturi ish beruvchilar va pedagoglar ishtirokida muhokama qilingan hamda ularning taklif va tavsiyalari asosida ta'lim dasturiga o'zgartirishlar kiritilgan

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim dasturi ish beruvchilar va pedagoglar ishtirokida qanday tartibda muhokama qilingan?

❖ Ish beruvchilar va pedagoglar tomonidan ta'lim dasturini takomillashtirish bo'yicha berilgan taklif hamda tavsiyalar asosida ta'lim dasturiga qanday o'zgartirishlar kiritilgan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Berilgan taklif va tavsiyalar;
- ✓ Ta'lim dasturi.

6.5. INDIKATOR

Ta'lim dasturi DTS, MMR va kasbiy standart(lar)ga (yoki malaka talablari) muvofiq ta'lim dasturi yakunida beriladigan kvalifikatsiya(lar) aniq belgilangan holda ishlab chiqilgan va ish beruvchilar bilan kelishilgan holda tasdiqlangan

Yordamchi savollar:

- ❖ Ta'lim dasturi ishlab chiqilishida kvalifikatsiya(lar) qanday belgilangan?
- ❖ Ta'lim dasturining ish beruvchilar bilan kelishgan holda tasdiqlanishi yuzasidan qanday ishlar amalga oshirilgan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Ta'lim dasturi.

7-MEZON. Ta'lim dasturining mazmuni va strukturasi nazariya hamda amaliyot bilan mutanosib ravishda uyg'unlashtirilgani

Izoh: ta'lim dasturida nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirilgani, fanlar (modullar), amaliyot va o'quv yuklamalari mutanosibligi baholanadi

7.1. INDIKATOR

Ta'lim dasturida belgilangan kutilgan o'quv natijalari va kompetensiyalarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy qismlar belgilangan

Yordamchi savollar:

- ❖ Ta'lim dasturida belgilangan kutilgan o'quv natijalari va kompetensiyalarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy qismlar qanday belgilangan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Ta'lim dasturi.

7.2. INDIKATOR

Ta'lim dasturida nazariya va amaliyot uchun ajratilgan kreditlar (soatlar) DTS hamda MMRdagi malaka darajasiga mos

Yordamchi savollar:

- ❖ Ta'lim dasturida nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun ajratilgan kreditlar (soatlar) DTS va MMRda belgilangan malaka darajasi talablariga qanday moslashtirilgan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Ta'lim dasturi.

7.3. INDIKATOR

Kasb (mutaxassislik) xususiyatidan kelib chiqqan holda ta'lim dasturida amaliyot mashg'ulotlari (o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlari hamda laboratoriya mashg'ulotlari) nazarda tutilgan va zarur kreditlar (soatlar) ajratilgan

Yordamchi savollar:

❖ Kasb (mutaxassislik) xususiyatidan kelib chiqib ta'lim dasturida amaliyot mashg'ulotlari (o'quv, ishlab chiqarish va laboratoriya mashg'ulotlari) qanday tartibda belgilangan?

❖ Amaliyot mashg'ulotlari uchun zarur bo'lgan kreditlar (soatlar) qanday ajratilgan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Ta'lim dasturi.

7.4. INDIKATOR

Nazariy va amaliy fanlar (modullar) o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash uchun ish beruvchi korxonalar va amaliyot bazalari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ Ish beruvchi korxonalar va amaliyot bazalari bilan qanday hamkorliklar yo'lga qo'yilgan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Shartnoma yoki memorandumlar.

7.5. INDIKATOR

Ta'lim dasturini baholash natijalariga muvofiq nazariy fanlar (modullar) va amaliyot mashg'ulotlari takomillashtirib boriladi hamda tizimli ravishda kreditlar (soatlar) qayta ko'rib chiqiladi**

Yordamchi savollar:

❖ Nazariy fanlar (modullar) va amaliyot mashg'ulotlarini takomillashtirib borishda ta'lim dasturini baholash natijalari qanday inobatga olinadi?

❖ Ta'lim dasturini baholash natijalariga muvofiq kreditlar (soatlar)ni qayta ko'rib chiqish qanday tashkil etib boriladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Ta'lim dasturini baholash natijalariga muvofiq amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumot.

8-MEZON. Ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani

Izoh: ta'lim dasturining davomiyligi, fanlardagi (modullar) nazariya va amaliyotning o'zaro uzviyligi va uzluksizligi, shuningdek mavzularning uyg'unligi baholanadi

8.1. INDIKATOR

Ta'lim dasturining davomiyligi (umumiy kreditlar (soatlar), o'qish muddati) ushbu dasturning maqsadlari va kutilgan o'quv natijalariga muvofiq ravishda belgilangan*

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim dasturi umumiy kreditlari (soatlar) va o'qish muddatining ushbu dastur maqsadlari va kutilgan o'quv natijalariga muvofiqligi qanday ta'minlangan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Ta'lim dasturi.

8.2. INDIKATOR

O'quv rejadagi fanlarning (modullarning) ketma-ketligi va uzluksiz ta'lim tizimiga (boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus kasbiy ta'lim darajalari hamda oliy ta'lim) muvofiqligi ta'minlangan

Yordamchi savollar:

❖ O'quv rejadagi fanlarning ketma-ketligi va uzluksiz ta'lim tizimiga muvofiqligi qanday ta'minlangan?

Asoslantiruvchi hujjat(lar):

✓ Tahliliy ma'lumot.

8.3. INDIKATOR

Fanlarning (modullarning) o'quv yuklamalari hamda nazariy va amaliy mashg'ulotlarning ketma-ketligi davomiylik, uzluksizlik va kutilgan o'quv natijalari talablariga mos ravishda ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

❖ Fanlarning (modullarning) o'quv yuklamalari hamda nazariy va amaliy mashg'ulotlarning ketma-ketligi davomiylik, uzluksizlik va kutilgan o'quv natijalariga mos ravishda ishlab chiqilishi qanday ta'minlangan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Ta'lim dasturi.

8.4. INDIKATOR

Fanlardagi (modullardagi) nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'rtasida o'zaro integratsiya ta'minlangan

Yordamchi savollar:

❖ Fanlardagi (modullardagi) nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'rtasida o'zaro integratsiya qanday ta'minlangan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Ta'lim dasturi.

8.5. INDIKATOR

Ta'lim dasturini qayta ko'rib chiqish jarayonida fanlardagi (modullardagi) nazariy va amaliy mashg'ulotlarning o'zaro uzviyligi va uzluksizligi doimiy tahlil qilinadi hamda takomillashtiriladi**

Yordamchi savollar:

- ❖ Ta'lim dasturini qayta ko'rib chiqish jarayoni qanday tashkil qilinadi?
- ❖ Fanlardagi (modullardagi) nazariy va amaliy mashg'ulotlarning o'zaro uzviyligi va uzluksizligi qanday davriylikda tahlil qilinadi va takomillashtiriladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Ta'lim dasturi.

9-MEZON. Amaldagi ta'lim dasturlarining tizimli ravishda monitoringi yuritilgani hamda uning samaradorligini oshirish va takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilgani*

Izoh: ta'lim dasturining monitoringi va tahlili (semestr, yillik) yo'lga qo'yilgan, o'tkazilgan monitoring va tahlil natijalari asosida samaradorlikni oshirish choralari ko'rilganligi, shuningdek ish beruvchilar, o'quvchilar, ota-onalar, bitiruvchilar va soha mutaxassislari jalb etilgani baholanadi

9.1. INDIKATOR

Ta'lim dasturining samaradorligini baholash tartibi va mezonlari ishlab chiqilgan**

Yordamchi savollar:

- ❖ Ta'lim dasturining samaradorligini baholash tartibi va mezonlari qanday vazifalarni o'z ichiga olgan holda ishlab chiqiladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Baholash tartibi va mezonlari.

9.2. INDIKATOR

Ta'lim dasturi bo'yicha tizimli monitoring va tahlil jarayonlari amalga oshirib boriladi**

Yordamchi savollar:

- ❖ Ta'lim dasturi bo'yicha monitoring va tahlil jarayonlari qanday amalga oshirib boriladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Monitoring bo'yicha ma'lumot.

9.3. INDIKATOR

Monitoring jarayonida ish beruvchilar, o'quvchilar, ota-onalar, bitiruvchilar hamda soha mutaxassislarining ishtiroki tizimli ravishda yo'lga qo'yiladi**

Yordamchi savollar:

❖ Monitoring jarayonida ish beruvchilar, o'quvchilar, ota-onalar, bitiruvchilar hamda soha mutaxassislarining ishtirokini ta'minlash bo'yicha qanday ishlar amalga oshiriladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Monitoring bo'yicha ma'lumot.

9.4. INDIKATOR

Monitoring natijalari tahlil qilinib, ta'lim dasturining samaradorligi va kutilgan o'quv natijalariga mosligi baholab boriladi hamda aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi shakllantirib boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ Monitoring natijalari qanday usullarda tahlil qilinadi?

❖ Ta'lim dasturining samaradorligi va kutilgan o'quv natijalariga mosligi qanday baholanadi?

❖ Aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasida qanday vazifalar aks ettiriladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Chora-tadbirlar rejasi.

9.5. INDIKATOR

Chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalar ijrosi tahlil qilinib, ta'lim dasturidagi fanlar (modullar) va amaliyot mashg'ulotlarining mazmuni hamda baholash tartibi va mezonlariga zarur o'zgartirishlar kiritib boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ Chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalar ijrosi qanday tahlil qilinadi?

❖ Fanlar (modullar) va amaliyot mashg'ulotlarining mazmuni, baholash tartibi va mezonlariga qanday o'zgartirishlar kiritib boriladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Chora-tadbirlar rejasi ijrosi bo'yicha ma'lumot;

✓ Baholash tartibi va mezonlariga kiritilgan o'zgartirishlar yuzasidan ma'lumot.

III. O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH VA KUTILGAN O'QUV NATIJALARINI BAHOLASH YO'NALISHI

***Izoh:** O'quv jarayoni DTS, ta'lim dasturidagi nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarning o'zaro uyg'unligi asosida tashkil etilganligi, kutilgan o'quv natijalari ta'lim dasturida belgilangan mezonlar asosida xolislik va shaffoflik tamoyillariga amal qilinganligi baholanadi.*

10-MEZON. Ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani*

***Izoh:** ishchi o'quv reja va dasturlar DTS hamda ish beruvchilarning takliflari asosida ishlab chiqilgani va ta'lim tashkiloti tomonidan tasdiqlangani baholanadi*

10.1. INDIKATOR

Ishchi o'quv reja va fan (modul), amaliyot dasturlari namunaviy o'quv reja va dasturlar asosida ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

❖ Ishchi o'quv reja va fan (modul), amaliyot dasturlari qanday hujjatlar asosida ishlab chiqilgan?

❖ Ishchi o'quv reja va fan (modul), amaliyot dasturlarini tasdiqlash jarayoni qanday tartibda amalga oshirilgan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Ishchi o'quv reja va dasturlar.

10.2. INDIKATOR

❖ Pedagog kadrlarni kasbiy rivojlantirishga qaratilgan qanday choralar ko'rib boriladi?

❖ Ko'rilgan choralarning samaradorligi bo'yicha tahliliy hisobotlarning muntazam yuritilishi bo'yicha qanday ishlar amalga oshiriladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Samaradorligi bo'yicha tahliliy hisobot.

VI. MODDIY-TEXNIK TA'MINOT YO'NALISHI

Izoh: ta'lim dasturi doirasida amaliyotlar, bino-inshoot, uskunalar, laboratoriyalar, AKT va o'quv-metodik resurslar hamda ularni saqlash, ekspluatatsiya qilish, ta'mirlash va modernizatsiya qilish jarayonlarini qamrab oluvchi infratuzilma va resurslar ta'minoti tizimi baholanadi

25-MEZON. Ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar,

xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani*

***Izoh:** amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun zarur uskunalar, asbob-jihozlar, inventar, texnika, xomashyo va (yoki) yonilg'i-moylash materiallarining mavjudligi, ulardan foydalanish bo'yicha metodik qo'llanmalar (ko'rsatmalar) bilan ta'minlanganlik darajasi baholanadi.*

25.1. INDIKATOR

Ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha infratuzilma, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar va inventarlar mavjud hamda ular ta'lim dasturining talablariga muvofiq

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim dasturi infratuzilma, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar va inventarlar bilan qay darajada ta'minlangan?

❖ Infratuzilma, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar va inventarlarning ta'lim dasturining talablariga muvofiqligi qanday ta'minlangan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Ta'lim tashkiloti pasporti;
- ✓ Inventarizatsiya hujjatlari.

25.2. INDIKATOR

Ta'lim dasturi bo'yicha jihozlar va texnikalar soni o'quvchilar kontingentidan (guruh hajmidan) kelib chiqqan holda ta'minlangan**

Yordamchi savollar:

❖ Jihozlar va asbob-uskunalar sonini o'quvchilar kontingentiga mosligini ta'minlash bo'yicha qanday ishlar amalga oshiriladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Jihozlar va asbob-uskunalar sonini o'quvchilar kontingentiga mosligi bo'yicha ma'lumot.

25.3. INDIKATOR

Asbob-uskunalar texnik pasportlarga ega va texnik ko'rikdan o'tkazib boriladi hamda texnik xizmat ko'rsatilganlik (ta'mirlash, profilaktika) ishlari hujjatlashtirilgan**

Yordamchi savollar:

❖ Asbob-uskunalarining texnik pasportlarga egaligi qanday ta'minlanadi?

- ❖ Asbob-uskunalar qanday davriylikda texnik ko'rikdan o'tkazib boriladi?
- ❖ Ta'mirlash, profilaktika va boshqa texnik xizmat ko'rsatish ishlari qanday rasmiylashtiriladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Asbob-uskunalarining texnik pasporti;
- ✓ Texnik ko'rik bo'yicha hujjatlar (akt yoki jurnal).

25.4. INDIKATOR

Ta'lim dasturi va o'quvchilar soniga mos ravishda amaliy mashg'ulotlar uchun zarur xomashyo va (yoki) yonilg'i-moylash materiallari miqdori (hajmi) shakllantirilgan hamda zaxira qilingan**

Yordamchi savollar:

- ❖ Amaliy mashg'ulotlar uchun zarur xomashyo va (yoki) yonilg'i-moylash materiallari miqdori (hajmi) qanday shakllantiriladi?
- ❖ Amaliy mashg'ulotlar uchun zarur xomashyo va (yoki) yonilg'i-moylash materiallarining zaxirasi qanday ta'minlanadi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Xomashyo va/yoki yonilg'i-moylash materiallari ro'yxati va zaxirasi.

25.5. INDIKATOR

Xomashyo va (yoki) yonilg'i-moylash materiallaridan foydalanish hamda ularni hisobdan chiqarish tartibi mavjud va ular yuritib (hujjatlashtirib) boriladi**

Yordamchi savollar:

- ❖ Xomashyo va (yoki) yonilg'i-moylash materiallaridan foydalanish va ularni hisobdan chiqarish tartibi qanday hujjatlar bilan belgilangan hamda qanday yuritib boriladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Xomashyo va (yoki) yonilg'i-moylash materiallaridan foydalanish va ularni hisobdan chiqarish tartibi (buyruq);
- ✓ Xomashyo va (yoki) yonilg'i-moylash materiallaridan foydalanish bo'yicha ma'lumot.

25.6. INDIKATOR

Jihoz va asbob-uskunalaridan foydalanish bo'yicha metodik qo'llanmalar, yo'riqli texnologik xaritalar, ko'rsatmalar va yo'riqnomalar (xavfsizlik yo'riqnomalari, instruksiyalar) mavjud

Yordamchi savollar:

❖ Jihoz va asbob-uskunalaridan foydalanish bo'yicha metodik qo'llanmalar, yo'riqli texnologik xaritalar, ko'rsatmalar va yo'riqnomalar ishlab chiqish qanday tashkil etilgan hamda tasdiqlangan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Metodik qo'llanmalar, yo'riqli texnologik xaritalar, ko'rsatmalar va yo'riqnomalar.

26-MEZON. Fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani*

Izoh: fanlar (modullar) bo'yicha darsliklar, o'quv-metodik qo'llanmalar, o'qitish materiallari to'plamlari, multimedia va elektron ta'lim resurslarining mavjudligi, sifati va dasturga mosligi baholanadi

26.1. INDIKATOR

Ta'lim dasturidagi fan (modul) va amaliyot mashg'ulotlari bo'yicha darsliklar, o'quv adabiyotlari, metodik qo'llanmalar va elektron ta'lim resurslari mavjud

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim dasturidagi fan (modul) va amaliyot mashg'ulotlari bo'yicha darsliklar, o'quv adabiyotlari, metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilgan?

❖ Elektron ta'lim resurslariga a'zo bo'lish, kirish ta'minlanganligi va yangilab borish yuzasidan qanday vazifalar bajarilgan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Ta'lim dasturidagi fan (modul) va amaliyot mashg'ulotlari bo'yicha darsliklar, o'quv adabiyotlari, metodik qo'llanmalar bo'yicha ma'lumot;

✓ Elektron ta'lim resurslari.

26.2. INDIKATOR

Ta'lim dasturidagi fan (modul) va amaliyot mashg'ulotlari bo'yicha darsliklar, o'quv adabiyotlari, metodik qo'llanmalar va elektron ta'lim resurslari soni o'quvchilar kontingentiga nisbatan mos ravishda ta'minlangan

Yordamchi savollar:

❖ Darsliklar, o'quv adabiyotlari, metodik qo'llanmalar va elektron ta'lim resurslari sonini o'quvchilar kontingentiga mos ravishda ta'minlash bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilgan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Darsliklar, o'quv adabiyotlari va metodik qo'llanmalarning o'quvchilar kontingentiga mosligi ta'minlanganligi bo'yicha ma'lumot.

26.3. INDIKATOR

Fanlar (modullar) va amaliyot mashg'ulotlari bo'yicha darsliklar, o'quv adabiyotlari, metodik qo'llanmalar va elektron ta'lim resurslari doimiy ravishda ishlab chiqiladi hamda foydalanish uchun ochiqligi ta'minlab boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ Fanlar (modullar) va amaliyot mashg'ulotlari bo'yicha darsliklar, o'quv adabiyotlari, metodik qo'llanmalar va elektron ta'lim resurslarni ishlab chiqish bo'yicha qanday choralar ko'riladi?

❖ Darsliklar, o'quv adabiyotlari, metodik qo'llanmalar va elektron ta'lim resurslaridan ochiq foydalanish qanday yo'lga qo'yiladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Ishlab chiqilgan darsliklar, o'quv adabiyotlari, metodik qo'llanmalar va elektron ta'lim resurslari ro'yxati.

26.4. INDIKATOR

O'quv adabiyotlari va metodik qo'llanmalar yangilab boriladi hamda ularni fanning (modulning) mazmuni va o'quv amaliyotiga moslashtirish mexanizmi joriy etib boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ O'quv adabiyotlari va metodik qo'llanmalarni yangilash bo'yicha qanday ishlar amalga oshiriladi?

❖ O'quv adabiyotlari va metodik qo'llanmalarni fanning (modulning) mazmuni va o'quv amaliyotiga moslashtirish bo'yicha mas'ul va vazifalar qanday belgilanadi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Yangi adabiyot va qo'llanmalar ro'yxati;

✓ O'quv adabiyotlari va metodik qo'llanmalarni yangilash va fan mazmuniga moslashtirish bo'yicha ma'lumot.

26.5. INDIKATOR

Ta'lim dasturidagi fanlar (modullar) va amaliyot mashg'ulotlari mazmuniga mos zamonaviy (xorijiy) adabiyotlardan va qo'shimcha materiallardan foydalanish imkoniyati yaratilgan

Yordamchi savollar:

❖ Zamonaviy (xorijiy) adabiyotlar va qo'shimcha materiallarga ehtiyojlarni aniqlash yuzasidan qanday ishlar bajarilgan?

❖ Fanlar (modullar) va amaliyot mashg'ulotlari mazmuniga mos zamonaviy (xorijiy) adabiyotlardan va qo'shimcha materiallardan foydalanish bo'yicha qanday imkoniyatlar yaratilgan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Zamonaviy (xorijiy) adabiyotlar ro'yxati;

✓ Zamonaviy (xorijiy) adabiyotlar va qo'shimcha materiallardan foydalanish bo'yicha yaratilgan imkoniyatlar to'g'risida ma'lumot.

26.6. INDIKATOR

Ta'lim dasturi bo'yicha o'quv qo'llanmalar doimiy ravishda yangilanib, fanlar (modullar) va amaliyot mashg'ulotlarining so'nggi talablariga mos holda takomillashtirib boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ O'quv qo'llanmalarni yangilash ehtiyoji qanday aniqlanadi va amalga oshiriladi?

❖ O'quv qo'llanmalarni fanlar (modullar) va amaliyot mashg'ulotlarining so'nggi talablariga mos holda takomillashtirish bo'yicha qanday ishlar amalga oshiriladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ O'quv qo'llanmalarni yangilash bo'yicha ma'lumot.

27-MEZON. O'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning o'quvchilar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani*

Izoh: o'quv, laboratoriya va ustaxonalar (poligonlar) o'quvchilar soniga mos ravishda ta'lim dasturi bo'yicha zarur jihozlar va AKT vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga mosligi baholanadi

27.1. INDIKATOR

O'quvchilar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturi bo'yicha o'quv xonalari va jihozlar bilan ta'minlangan*

Yordamchi savollar:

❖ O'quvchilar soniga mos o'quv xonalari ehtiyoji qanday mezonlar asosida aniqlangan?

❖ O'quv xonalarining jihozlanish darajasi va zarur jihozlar ro'yxati qanday shakllantirilgan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ O'quv xonalari ro'yxati;
- ✓ O'quv xonalari jihozlari inventarizatsiyasi.

27.2. INDIKATOR

O'quv, laboratoriya xonalari va ustaxonalar (poligonlar) AKT vositalari va qurilmalari bilan ta'minlangan

Yordamchi savollar:

❖ O'quv, laboratoriya xonalari va ustaxonalar uchun zarur AKT vositalari va qurilmalarga bo'lgan ehtiyoj qanday aniqlangan?

❖ O'quv, laboratoriya xonalari va ustaxonalarni zarur AKT vositalari va qurilmalar bilan ta'minlash yuzasidan qanday ishlar amalga oshirilgan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ AKT vositalari va qurilmalari ro'yxati.

27.3. INDIKATOR

O'quv, laboratoriya xonalari va ustaxonalarda (poligonlarda) o'quvchilar sonidan kelib chiqqan holda zarur o'rindiqlar va ish joylari mavjud

Yordamchi savollar:

❖ O'quvchilar soniga mos o'rindiqlar va ish joylariga bo'lgan ehtiyoj qanday aniqlangan?

❖ O'quv, laboratoriya xonalari va ustaxonalari (poligonlarda) o'quvchilar soniga mos o'rindiqlar va ish joylari bilan qanday ta'minlangan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ O'quv va laboratoriya xonalarida ish joylari va o'rindiqlar bo'yicha ma'lumot.

27.4. INDIKATOR

O'quv, laboratoriya xonalari va ustaxonalarda (poligonlarda) xavfsizlik qoidalari, texnika va yong'in xavfsizligi bo'yicha ko'rsatmalar, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish vositalari va xavfsizlik jurnallari mavjud hamda evakuatsiya yo'llari (sxemalari) belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ O'quv, laboratoriya xonalari va ustaxonalarda (poligonlarda) xavfsizlik qoidalari, texnika va yong'in xavfsizligi bo'yicha ko'rsatmalar bilan qanday ta'minlangan?

❖ O'quv, laboratoriya xonalari va ustaxonalar (poligonlar) birinchi tibbiy yordam ko'rsatish vositalari bilan qanday ta'minlangan?

❖ Xavfsizlik jurnallari qanday yuritilgan va evakuatsiya yo'llari (sxemalari) bino-inshootlarda qanday belgilangan hamda ta'minlangan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Ko'rsatmalar va evakuatsiya sxemalari (fotolavha);
- ✓ Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish vositalari (ro'yxati va fotolavhasi);
- ✓ Xavfsizlik bo'yicha jurnal.

27.5. INDIKATOR

Ustaxonalar (poligonlar) ta'lim dasturiga mos jihozlar, asbob-uskunalar va texnikalar bilan ta'minlangan hamda ushbu jihozlar, asbob-uskunalar va texnikalar doimiy ishchi holatda

Yordamchi savollar:

❖ Ustaxonalar (poligonlar) uchun zarur jihozlar, asbob-uskunalar va texnikalar ehtiyoji qanday ko'rsatkichlar orqali aniqlangan?

❖ Mavjud jihozlar va texnikalarning texnik holati, xavfsizligi va ishlashga yaroqliligi qanday tartibda tekshirilgan?

❖ Jihozlar, texnikalar nosozligi aniqlanganda, ularni ta'mirlash, almashtirish yoki yangilash bo'yicha qanday mexanizmlar amalda qo'llanilgan va nazorat qilingan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Jihoz va asbob-uskunalar inventar ro'yxati.
- ✓ Texnik ko'rik dalolatnomalari.

28-MEZON. Inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani

Izoh: ta'lim tashkilotida binolar, xonalar va jihozlar nogironligi bo'lgan shaxslar (o'quvchilar) ehtiyojlariga moslashtirilganligi, maxsus o'quv materiallari tayyorlanganligi hamda ulardan samarali foydalanish uchun AKT bilan ta'minlanganligi baholanadi

28.1. INDIKATOR

Kasbiy ta'lim tashkilotining binolari va o'quv xonalari, shu jumladan yo'laklar, panduslar, eshiklar va sanitariya xonalari (hojatxonalar) nogironligi bo'lgan shaxslar (o'quvchilar) uchun moslashtirilgan

Yordamchi savollar:

❖ Binolar va o'quv xonalarida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qanday sharoitlar yaratilgan?

❖ Nogironligi bo'lgan o'quvchilar uchun mavjud infratuzilmani takomillashtirish va qulay imkoniyatlarni yaratish bo'yicha qanday choralar ko'rilgan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun yaratilgan sharoitlar bo'yicha foto-dalillar.

28.2. INDIKATOR

Ta'lim dasturi bo'yicha maxsus o'quv materiallari (Brayl alifbosidagi kitoblar, ko'rgazmali materiallar), maxsus jihozlar va yordamchi texnik vositalar mavjud

Yordamchi savollar:

❖ Nogironligi bo'lgan o'quvchilar uchun zarur maxsus o'quv materiallari, maxsus jihozlar va yordamchi texnik vositalarga ehtiyoj qanday aniqlangan?

❖ Aniqlangan ehtiyoj asosida maxsus o'quv materiallari, maxsus jihozlar va yordamchi texnik vositalar bilan qanday ta'minlangan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Maxsus o'quv materiallari ro'yxati;

✓ Maxsus jihozlar (foto-dalillar).

28.3. INDIKATOR

Inklyuziv ta'lim uchun AKT, elektron ta'lim resurslari va dasturiy ta'minotdan foydalanish imkoniyati (audio-video resurslar, Brayl alifbosi, subtitrlar va boshqalar) yaratilgan

Yordamchi savollar:

❖ Inklyuziv ta'lim uchun AKT, elektron ta'lim resurslari va dasturiy ta'minotdan foydalanish imkoniyati qanday ta'minlangan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Inklyuziv ta'lim bo'yicha AKT, elektron ta'lim resurslari (havola) va dasturiy ta'minot ro'yxati.

28.4. INDIKATOR

Inklyuziv ta'lim metodikasi bo'yicha tayyorlangan va zarur ko'nikmalarga ega pedagog(lar) va (yoki) psixolog mavjud

Yordamchi savollar:

❖ Pedagoglar va psixologlarni inklyuziv ta'lim metodikasi bo'yicha salohiyatini oshirish qanday tashkil qilingan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Pedagoglar va psixologlar salohiyatini oshirish yuzasidan ma'lumot.

28.5. INDIKATOR

Ta'lim jarayonida inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlovchi pedagogik va psixologik yordam ko'rsatish tizimi mavjud**

Yordamchi savollar:

❖ Inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchilarga pedagogik va psixologik yordam ko'rsatish tizimi qanday tashkil etiladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Tasdiqlangan tartib.

28.6. INDIKATOR

Inklyuziv ta'lim sharoitlarining amalda qo'llanishi va samaradorligi bo'yicha monitoring olib boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ Inklyuziv ta'lim sharoitlarining amalda qo'llanishi va samaradorligi qanday davriylikda monitoring qilinadi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Monitoring ma'lumotlari.

29-MEZON. Axborot-resurs markazining (kutubxonaning) (bundan buyon matnda ARM deb yuritiladi) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi*

Izoh: Axborot-resurs markazining (kutubxonaning) (bundan buyon matnda ARM deb yuritiladi) ta'lim dasturiga mos ravishda darslik, o'quv adabiyotlar bilan ta'minlangani, kompyuter texnikalarining mavjudligi, o'quvchilar va pedagoglar uchun o'quv zali hamda elektron kutubxonadan erkin foydalanish imkoniyatlari yaratilgani baholanadi

29.1. INDIKATOR

ARMda ta'lim dasturiga mos darslik, o'quv va badiiy adabiyotlar mavjud*

Yordamchi savollar:

❖ ARMda o'quvchilar kontingentiga mos darsliklar, o'quv va badiiy adabiyotlarga ehtiyoj qanday aniqlangan?

❖ Aniqlangan ehtiyoj asosida darsliklar, o'quv va badiiy adabiyotlar qanday ta'minlangan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ ARMdagi adabiyotlar ro'yxati.

29.2. INDIKATOR

ARM zamonaviy AKT va elektron qurilmalar bilan jihozlangan va ulardan foydalanish bo'yicha o'quvchilarga doimiy ravishda tushuntirishlar beriladi**

Yordamchi savollar:

- ❖ ARM qanday AKT va elektron qurilmalar bilan jihozlanadi?
- ❖ ARMdagi AKT va elektron qurilmalar qanday davriylikda yangilanib boriladi?
- ❖ O'quvchilarga ARMdagi AKT va elektron resurslardan foydalanish bo'yicha tushuntirishlar qanday tartibda olib boriladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ AKT vositalari inventar ro'yxati;
- ✓ Amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ma'lumot.

29.3. INDIKATOR

ARM o'quv zali, elektron kutubxonadan foydalanish va internet tarmog'iga ulanish imkoniyatlari yaratilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ ARM o'quv zali, elektron kutubxonasi va internet tarmog'idan foydalanish uchun qanday shart-sharoitlar yaratilgan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Foto-tasdiqlar va havolalar;
- ✓ Internet tarmog'i shartnomasi.

29.4. INDIKATOR

Elektron kutubxonaning axborot-kutubxona fondida ta'lim dasturi bo'yicha darsliklar, o'quv adabiyotlar, o'qitish materiallari to'plami, elektron ta'lim resurslari va multimedia kontentlar raqamli formatda joylashtirilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ Axborot-kutubxona fondida darsliklar, o'quv adabiyotlari, o'qitish materiallari to'plamining raqamli formatda joylashtirilishi qanday amalga oshirilgan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Elektron kutubxona bo'yicha ma'lumot (screenshot yoki resurslar ro'yxati).

29.5. INDIKATOR

ARM va elektron ta'lim resurslaridan foydalanish tartibi qulay va ochiq, elektron ma'lumotlar bazasiga erkin kirish ta'minlangan hamda kutubxona xizmatlaridan foydalanish samaradorligi bo'yicha monitoring yuritib boriladi**

Yordamchi savollar:

- ❖ ARM va elektron ta'lim resurslaridan foydalanish qanday yo'lga qo'yiladi?
- ❖ Elektron ma'lumotlar bazasiga erkin kirish yuzasidan qanday texnik va tashkiliy choralar ko'riladi?
- ❖ ARM xizmatlaridan foydalanish samaradorligini baholash bo'yicha monitoring qanday tartibda o'tkaziladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Elektron kutubxona bo'yicha ma'lumot (screenshot yoki resurslar ro'yxati).

29.6. INDIKATOR

ARM faoliyati natijalari pedagogik (metodik) kengashda muntazam muhokama qilinadi, shuningdek ARM faoliyatini takomillashtirish hamda zarur o'quv-uslubiy va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar rejalari shakllantiriladi va hisobot yuritib boriladi**

Yordamchi savollar:

- ❖ ARM faoliyati natijalari pedagogik kengashda qanday davriylikda muhokama qilinadi?
- ❖ ARM faoliyatini takomillashtirish hamda zarur o'quv-uslubiy va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash bo'yicha qanday chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi?
- ❖ Chora-tadbirlar rejasining bajarilishi va ARM faoliyati samaradorligi bo'yicha qanday hisobotlar yuritiladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Chora-tadbirlar rejasi;
- ✓ Kengash bayonnomalaridan ko'chirma;
- ✓ ARM faoliyati bo'yicha ma'lumot.

29.7. INDIKATOR

Kutubxona fondi muntazam yangilanib boriladi**

Yordamchi savollar:

- ❖ Kutubxona fondini yangilash qaysi davriylikda amalga oshiriladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Yangilangan fond haqida ma'lumot.

30-MEZON. Raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, Wi-Fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari)

Izoh: ta'lim jarayonini raqamlashtirishda AKT, LMS (learning management system), onlayn kurslar, vebinarlar, Wi-Fi zonalari, VR tizimlar va boshqa raqamli yechimlardan samarali foydalanish imkoniyatlari baholanadi

30.1. INDIKATOR

Ta'lim dasturi bo'yicha o'quvchilar va pedagoglar uchun barqaror internet ulanishi, Wi-Fi zonalari va raqamli qurilmalardan (kompyuter sinfi, VR tizimlar, planshetlar va boshqalar) foydalanish imkoniyati yaratilgan

Yordamchi savollar:

❖ O'quvchilar va pedagoglar uchun barqaror internet va Wi-Fi zonalaridan foydalanishlari bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilgan?

❖ O'quvchilar va pedagoglar uchun raqamli qurilmalardan foydalanishlari bo'yicha qanday imkoniyatlar yaratilgan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Internet shartnomasi;

✓ Internat va Wi-Fi tarmog'ining qamrov (foto-dalillar).

30.2. INDIKATOR

Ta'lim dasturi bo'yicha elektron ta'lim resurslarini boshqarish bo'yicha alohida mas'ul xodim(lar) (administrator) mavjud

Savollar:

❖ Elektron ta'lim resurslari uchun mas'ul xodim(lar)ni tayinlangan va u(lar)ning vazifalari qanday belgilangan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Mas'ul xodim(lar) bo'yicha buyruq(lar);

✓ Mas'ul xodim(lar) bo'yicha lavozim yo'riqnoma(lar).

30.3. INDIKATOR

Ta'lim dasturi bo'yicha onlayn kurslar, video darslar, onlayn testlar va boshqa raqamli kontentlar mavjud hamda ular amalda qo'llanib boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim dasturi bo'yicha onlayn kurslar, video darslar, onlayn testlar va boshqa raqamli kontentlarga bo'lgan ehtiyoj qanday aniqlanadi?

❖ Ta'lim dasturi onlayn kurslar, video darslar, onlayn testlar va boshqa raqamli kontentlar bilan qanday ta'minlanadi hamda qo'llanib boriladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Raqamli kontentlar havolasi.

30.4. INDIKATOR

Vebinar va onlayn mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur texnik hamda metodik sharoitlar yaratilgan, vebinarlar va onlayn seminarlar muntazam tashkil etiladi**

Yordamchi savollar:

- ❖ Vebinar va onlayn mashg'ulotlarni o'tkazish uchun qanday zarur texnik hamda metodik sharoitlar yaratiladi?
- ❖ Vebinar va onlayn seminarlarni muntazam tashkil etish bo'yicha qanday ishlar bajariladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Vebinar va onlayn mashg'ulotlari uchun zarur texnik hamda metodik sharoitlar bo'yicha ma'lumot;
- ✓ O'tkazilgan vebinar va onlayn seminarlar bayonnomalari.

30.5. INDIKATOR

Ta'lim dasturi bo'yicha masofaviy ta'limda ishtirok etayotgan pedagoglar va o'quvchilar soni hisobga olinib, ularning ishtiroki yuzasidan monitoring olib boriladi**

Yordamchi savollar:

- ❖ Masofaviy ta'limda ishtirok etayotgan pedagoglar va o'quvchilar soni qanday tartibda hisobga olinadi?
- ❖ Masofaviy darslarda ishtirok etish jarayoni monitoring natijalari qanday shaklda qayd etiladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Masofaviy ta'lim ishtirokchilari ro'yxati;
- ✓ Monitoring natijalari (jadval, hisobot).

30.6. INDIKATOR

LMS (learning management system) va (yoki) ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimlari (EMIS PT), raqamli platformalardan foydalanish bo'yicha pedagoglar va o'quvchilar uchun o'quv-seminarlar (treninglar, vebinarlar) tashkil etib boriladi**

Yordamchi savollar:

- ❖ Pedagoglar va o'quvchilar uchun LMS va EMIS PT hamda raqamli platformalardan foydalanish bo'yicha qanday o'quv-seminarlar tashkil etiladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ O'quv-seminarlar (treninglar, vebinarlar) bayonnomalari.

30.7. INDIKATOR

LMS va (yoki) ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimlari (EMIS PT) orqali ta'lim jarayonini tashkil etish, baholash va monitoring qilish imkoniyati mavjud

Yordamchi savollar:

- ❖ LMS yoki EMIS PT orqali ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha qanday choralar ko'rilgan?
- ❖ LMS yoki EMIS PT orqali baholash va monitoring qilish qanday tashkil etilgan va amalga oshirilgan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ LMS yoki EMIS PT orqali ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha ma'lumot;
- ✓ Baholash va monitoring bo'yicha ma'lumot.

31-MEZON. Ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi

Izoh: ta'lim dastur xususiyatiga mos maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi, ularning sig'im-me'yorlarga mos jihozlanishi, xavfsizlik va inklyuzivlik talablari hamda ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari baholanadi

31.1. INDIKATOR

Ta'lim dasturi bo'yicha mavjud guruh(lar) o'quvchilar soniga mos ravishda bufet (oshxona) mavjud bo'lib, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq yuritilgan hamda bufetda (oshxonada) sog'lom ovqatlanishga oid tavsiyalar va ratsional menyu yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ Bufet (oshxona) qanday tartibda jihozlangan hamda uning faoliyati sanitariya-gigiyena talablariga mosligi qanday aniqlangan?
- ❖ Oshxona faoliyati sanitariya qoidalari va gigiyena normalariga muvofiq yuritilishi qanday nazorat qilingan?
- ❖ Sog'lom ovqatlanish bo'yicha tavsiyalar va ratsional menyu qanday shakllantirilgan va ularning amalda qo'llanishi qanday ta'minlangan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Bufet (oshxona) ruxsatnomasi;
- ✓ Ratsional menyudan foto-dalillar.

31.2. INDIKATOR

Ta'lim dasturi doirasida o'qishga qabul qilingan o'quvchilar sonini hisobga olgan holda dam olish uchun o'rindiqlar (ayvonlar) va soya joylar mavjud

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim dasturi doirasida o'qishga qabul qilingan o'quvchilar sonini hisobga olgan holda dam olish uchun qanday sharoitlar (o'rindiqlar va soya joylar) yaratilgan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Dam olish maydonchalari (foto-dalillar).

31.3. INDIKATOR

Ta'lim dasturi doirasida o'quvchilar sonidan kelib chiqib, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish uchun sport zali, sport maydoncha(lar)i va sog'lomlashtirish inshootlari mavjud

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim tashkiloti o'quvchilar kontingentidan kelib chiqib sport zali, sport maydoncha(lar)i va sog'lomlashtirish inshootlari bilan qanday ta'minlangan?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Sport zali yoki maydonchalari (foto-dalillar).

31.4. INDIKATOR

Sport zali, sport maydoncha(lar)i va sog'lomlashtirish inshootlari faoliyat ko'rsatadi, ularning jihozlari texnik jihatdan soz holda saqlanadi va yangilanib boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ Sport zali, sport maydonchalari va sog'lomlashtirish inshootlaridan o'quvchilarning foydalanishi qanday ta'minlanadi?

❖ Ulardagi jihozlarning texnik sozligi va yangiligini ta'minlash bo'yicha qanday ishlar amalga oshiriladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Jihozlarning inventar ro'yxati.

31.5. INDIKATOR

Ta'lim dasturi bo'yicha jihozlangan faollar zali mavjud**

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim tashkilotida faollar zali qanday holatda va undan qanday maqsadlarda foydalaniladi?

❖ Faollar zali qanday jihozlar bilan ta'minlanadi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

- ✓ Faollar zali jihozlanish ro'yxati (inventar);
- ✓ Xavfsizlik bo'yicha dalolatnoma (ruxsatnoma).

31.6. INDIKATOR

Binolar (inshootlar) xavfsizlik talablariga javob beradi**

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim tashkilotining binolari va inshootlari xavfsizlik talablariga muvofiqligini ta'minlash bo'yicha qanday choralar ko'riladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Binolar (inshootlar)da xavfsizlik ta'minlanganlik bo'yicha ma'lumot (foto-dalillar).

31.7. INDIKATOR

Infratuzilmadan foydalanish holati va samaradorligi baholanib, binolarning (inshootlarning) texnik holati bo'yicha yillik monitoring va hisobot yuritib boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ Infratuzilmadan foydalanish holati va samaradorligi qanday usullarda baholanadi?

❖ Infratuzilmaning texnik holati bo'yicha yillik monitoring va hisobot qanday yuritib boriladi?

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ Infratuzilmadan foydalanish bo'yicha hisobot.

ICHKI BAHOLASH NATIJALARI BO'YICHA XULOSA

Ichki baholash natijalari bo'yicha xulosa ta'lim dasturi faoliyatining davlat ta'lim standartlari, maxsus davlat akkreditatsiyasi mezonlari, milliy malaka ramkasi hamda kasbiy standartlarga muvofiq holda aniq va qisqa ifodalanadi.

Misol uchun: Ta'lim dasturining tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash, o'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash, o'quvchilar faoliyati, inson resurslari, moddiy-texnik ta'minot yo'nalishlardagi faoliyati davlat ta'lim standartlari va akkreditatsiya mezonlari asosida har tomonlama baholanadi.

Ta'lim dasturida aniqlangan kuchli jihatlar (Strengths) ta'lim natijalarining aniqligi, mehnat bozoriga yo'naltirilganligi, ish beruvchilar bilan hamkorlik, xalqaro aloqalar, bitiruvchilar bandligi hamda pedagoglar salohiyati qisqacha va aniq shaklda keltiriladi.

Aniqlangan kamchiliklar va xavflar (Weaknesses/Risks), ya'ni ta'lim standartlar yoki indikatorlarga to'liq javob bermaydigan jihatlar, resurslar, kadrlar yoki infratuzilma bilan bog'liq muammolar, ta'lim natijalari va amaliyot o'rtasidagi nomutanosibliklar, bitiruvchilarni munosib ish topishidagi muammolar ochiq va aniq sabablar bilan ko'rsatiladi.

Ta'lim natijalariga erishish darajasi bo'yicha belgilangan o'qitish natijalarining bajarilish darajasi, baholash natijalari tahlili, bitiruvchilarning ishga joylashishi yoki keyingi ta'limga o'tishi bo'yicha ma'lumotlar qisqacha raqamlarda ko'rsatib o'tiladi.

Manfaatdor tomonlar (o'quvchilar, pedagoglar, ish beruvchilar, bitiruvchilar) fikrining umumlashtirilgan natijalari bo'yicha umumiy xulosa raqamlar bilan beriladi.

Ta'lim dasturida o'quv jarayonini, ta'lim sifatini ta'minlash, moddiy-texnik bazasini takomillashtirish rejalari uchun xizmat qiladigan eng muhim takomillashtirish yo'nalishlari, ustuvor chora-tadbirlar, qisqa va o'rta muddatli o'zgarishlar aniq belgilanadi.

Ichki baholash natijalari bo'yicha umumiy qaror (conclusion statement), ya'ni ta'lim tashkilotining rasmiy munosabati asosida ta'lim tashkilotini kompleks davlat akkreditatsiyasiga tavsiya etish, kamchiliklarni bartaraf etgan holda tavsiya etish yoki takomillashtirish talab etilgan holda qayta ko'rib chiqish bildiriladi.

Takomillashtirish ishlari uchun mas'ul bo'linmalar, keyingi ichki monitoring muddatlari, qayta baholash rejasi qisqacha qayd etiladi.

MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASI UCHUN ICHKI BAHOLASH HISOBOTI UCHUN NAMUNAVIY JADVALLAR

Ilova: Ta'lim dasturi bo'yicha ichki baholash hisoboti **quyidagi ketma-ketlikda shakllantiriladi:**

1. Titul varaqasi (*platforma orqali avtomatik shakllanadi*);
2. Mundarija (*platforma orqali avtomatik shakllanadi*);
3. Ichki baholash bo'yicha komissiya a'zolari tarkibi (*keltirilgan 1-namunaviy jadval asosida tasdiqlanadi va platformaga yuklanadi*);
4. Ta'lim tashkiloti to'g'risida umumiy ma'lumot (*keltirilgan 2-namunaviy jadval asosida platforma orqali avtomatik shakllanadi*);
5. Ta'lim tashkilotining o'quv binolari va o'quvchilar turar joylari to'g'risida ma'lumot (*keltirilgan 3-namunaviy jadval asosida tasdiqlanadi va platformaga yuklanadi*);
6. Ta'lim dasturi to'g'risida ma'lumot (*keltirilgan 4-namunaviy jadval asosida tasdiqlanadi va platformaga yuklanadi*);
7. Amaldagi ta'lim dasturlari to'g'risida ma'lumot (*5-namunaviy jadval platforma orqali avtomatik shakllanadi*);
8. Ta'lim tashkilotidagi pedagog kadrlar bo'yicha ma'lumot (*keltirilgan 6-namunaviy jadval asosida tasdiqlanadi va platformaga yuklanadi*);
9. O'quvchilar kontingenti to'g'risida ma'lumot (*keltirilgan 7-namunaviy jadval asosida tasdiqlanadi va platformaga yuklanadi*);
10. Oxirgi 3 yildagi bitiruvchilar to'g'risida ma'lumot (*keltirilgan 8-namunaviy jadval asosida tasdiqlanadi va platformaga yuklanadi*);
11. Ta'lim tashkilotida oxirgi 3 yilda qabul parametrlarini bajarilishi to'g'risida ma'lumot (*keltirilgan 9-namunaviy jadval asosida tasdiqlanadi va platformaga yuklanadi*);
12. Pedagog kadrlar tarkibi to'g'risida ma'lumot (*keltirilgan 10-namunaviy jadval asosida tasdiqlanadi va platformaga yuklanadi*);
13. Axborot resurs markazlarida mavjud adabiyotlar to'g'risida ma'lumot (*keltirilgan 11-namunaviy jadval asosida tasdiqlanadi va platformaga yuklanadi*);
14. Axborot resurs markazlarida mavjud elektron resurslar to'g'risida ma'lumot (*keltirilgan 12-namunaviy jadval asosida tasdiqlanadi va platformaga yuklanadi*);
15. Amaliyot bazalari to'g'risida ma'lumot (*keltirilgan 13-namunaviy jadval asosida tasdiqlanadi va platformaga yuklanadi*);
16. Ta'lim tashkilotining bino va inshootlari to'g'risida ma'lumot (*keltirilgan 14-namunaviy jadval asosida tasdiqlanadi va platformaga yuklanadi*).

17. Ta'lim dasturini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi (*keltirilgan 15-namunaviy jadval asosida tasdiqlanadi va platformaga yuklanadi*).

“TASDIQLAYMAN”

_____ F.I.Sh.

“ ____ ” _____ 202__-y.

“

”

ta’lim dasturini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o’tkazish bo’yicha

ICHKI BAHOLASH HISOBOTI

Hudud -20__ y

1-namunaviy jadval:

“TASDIQLAYMAN”

_____ F.I.Sh.

“ ____ ” _____ 20__-y.

Ichki baholash bo'yicha komissiya a'zolari

TARKIBI

T/r	F.I.Sh.	Lavozimi
1.		
2.		
3.		
4.		
5.		
6.		

2- namunaviy jadval:

**Ta'lim tashkiloti to'g'risida umumiy
MA'LUMOT**

Nomi:	
Tashkil etilgan yili:	
Tashkil etish asosi:	<i>(normativ-huquqiy hujjat, litsenziya yoki boshqalar)</i>
Mulkchilik shakli:	
Jami dasturlar soni:	
Jami pedagoglar soni:	
Jami o'quvchilar soni:	
Rasmiy elk. pochtasi:	
Rasmiy veb-sahifasi:	
Rasmiy tel. raqami:	
Manzili (asosiy):	
Manzili (qo'shimcha):	
Davlat akkreditatsiyasi uchun mas'ul shaxs to'g'risida ma'lumoti	
F.I.Sh.:	
Lavozimi:	
Rasmiy elk. pochtasi:	
Rasmiy ish tel. raqami:	

3- namunaviy jadval:

**Ta'lim tashkilotining o'quv binolari va o'quvchilar turar joylari to'g'risida
MA'LUMOT**

T/r	Obyekt nomi	Mavjud o'quv binolari		Koeffitsiyenti	Mavjud o'quvchilar turar joyi		Koeffitsiyenti
		soni	quvvati		soni	quvvati	
1							
2							
3							
4							
5							
...							

4- namunaviy jadval:

Ta'lim dasturi to'g'risida

MA'LUMOT

1.	Ta'lim sohasi:	
2.	MMR bo'yicha darajasi:	
3.	Ta'lim dasturi kodi:	
4.	Ta'lim dasturi nomi:	
5.	Kvalifikatsiya(lar) nomi:	
6.	O'qitish muddati (to'liq davr uchun, yil):	
7.	Kredit/soati miqdori:	
8.	O'qitish tili:	
9.	Ta'lim shakli:	
10.	Qabul rejasi:	

5- namunaviy jadval:

**Amaldagi ta'lim dasturlari to'g'risida
MA'LUMOT**

T/r	Kasb va mutaxassislik		Darajasi	Ta'lim shakli (Kunduzgi/Dual)	Ta'lim dasturi turi (xalqaro/qo'shma /mahalliy)	O'qitish muddati
	kodi	nomi				
1						
2						
3						
4						
5						

Izoh: Yangi tashkil etilgan ta'lim tashkilotlari uchun ushbu jadval to'ldirilmaydi.

6-namunaviy jadval:

**Ta'lim tashkilotidagi pedagog kadrlar bo'yicha
MA'LUMOT**

Statusi	Akademik darajasi	Jami	Umumta'lim, umumkasbiy, maxsus fan pedagoglari soni			Ishlab chiqarish ta'lim ustalari			Ilmiy darajali pedagoglar soni
			jami	mahalliy	xorijiy	jami	mahalliy	xorijiy	
Asosiy shtatda va ichki o'rindosh	Bosh o'qituvchi								
	Yetakchi o'qituvchi/ kasbiy sertifikatga ega ishlab chiqarish ta'limi ustalari								
	Katta o'qituvchi								
	Oliy ma'lumotli o'qituvchi (toifasiz)								
	O'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchi								
	Boshqalar								
	Jami:								
Tashqi o'rindosh/ soatbay	Bosh o'qituvchi								
	Yetakchi o'qituvchi								
	Katta o'qituvchi								
	Oliy ma'lumotli o'qituvchi								
	O'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchi								
	Boshqalar								
	Jami:								
Jami:									

Izoh: Yangi tashkil etilgan ta'lim tashkilotlari uchun ushbu jadval to'ldirilmaydi.

7-namunaviy jadval:

**O'quvchilar kontingenti to'g'risida
MA'LUMOT***

Ta'lim shakllari bo'yicha	Jami o'quvchilar soni	Kurslar kesimida								Fuqarolik kesimida	
		1-kurs	qizlar	2-kurs	qizlar	3-kurs	qizlar	4-kurs	qizlar	Mahalliy	Xorijiy
Kunduzgi											
Dual											
Kechki											
Sirtqi											
Masofaviy											
Qo'shma dastur											
Xalqaro dastur											
Boshqalar											
Jami:											

Izoh: Yangi tashkil etilgan ta'lim tashkilotlari uchun ushbu jadval to'ldirilmaydi.

8-namunaviy jadval:

**Oxirgi 3 yildagi bitiruvchilar to'g'risida
MA'LUMOT**

O'quv yili	Kasb va mutaxassislik kodi	Kasb va mutaxassislik nomi	Jami o'quvchilar soni (A)	Bitirmasdan ketgan o'quvchilar soni (B)	Tugatish darajasi (%) (B/A)*100	12 oyda bandligi ta'minlanganlar soni	shundan		Bandlik darajasi (%)
							o'z-o'zini band qilgan	OTtda o'qishni davom etgan	

Izoh: Yangi tashkil etilgan ta'lim tashkilotlari uchun ushbu jadval to'ldirilmaydi.

9-namunaviy jadval:

**Ta'lim tashkilotida oxirgi 3 yilda qabul parametrlarining bajarilishi to'g'risida
MA'LUMOT**

T/r	Kasb va mutaxassislik ar kodi	Kasb va mutaxassislik nomi	Ta'lim shakli	Tasdiqlangan qabul reja	Qabul qilingan o'quvchilar soni	Qabul rejaning bajarilganligi (%) hisobida
20__-20__ o'quv yili						
1.						
2.						
						
20__-20__ o'quv yili						
1.						
2.						
						
20__-20__ o'quv yili						
1.						
2.						
						

Izoh: Yangi tashkil etilgan ta'lim tashkilotlari uchun ushbu jadval to'ldirilmaydi.

10-namunaviy jadval:

**Pedagog kadrlar tarkibi to'g'risida
MA'LUMOT**

T/r	Pedagoglarning FISH	Tug'ilgan yili	Stavkasi	tamomlagan OTT nomi	OTTni tugatgan yili	Diplom bo'yicha mutaxassisligi	Malaka toifasi	Ilmiy darajasi/ unvoni	Oxirgi 3 yilda malaka oshirganligi		Qaysi fanlardan dars berishi
									Respublikada	Xorijda	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
	Asosiy shtat (ichki o'rindosh bilan birga)										
1.											
2.											
											
	Tashqi o'rindosh										
1.											
2.											
	...										

Izoh: Yangi tashkil etilgan ta'lim tashkilotlari uchun ushbu jadval to'ldirilmaydi.

11-namunaviy jadval:

**Axborot resurs markazlarida mavjud adabiyotlar to'g'risida
MA'LUMOT**

T/r	Kasb va mutaxassisliklar		O‘quv adabiyotlar				O‘qitish materiallar to‘plamlari	
			Umumta’lim fanlar		Umumkasbiy va maxsus fanlar			
	Kodi	Nomi	Nomda	Soni (dona)	Nomda	Soni (dona)	Nomda	Soni (dona)
1.								
2.								
...								

12-namunaviy jadval:

**Axborot resurs markazlarida mavjud elektron resurslar to'g'risida
MA'LUMOT**

T/r	Kasb va mutaxassisliklar		O'quv adabiyotlar				O'qitish materiallar to'plamlari	
			Umumta'lim fanlar		Umumkasbiy va maxsus fanlar			
	kodi	nomi	nomda	soni (dona)	nomda	soni (dona)	nomda	soni (dona)
1.								
2.								
...								

13-namunaviy jadval:

**Amaliyot bazalari to'g'risida
MA'LUMOT**

T/r	Kasb va mutaxassisliklar		Ta'lim shakli	Kursi	Jami o'quvchilar soni	Amaliyot o'tash joyi (korxona va tashkilot nomi)	Amaliyot o'taydigan va/yoki o'tayotgan o'quvchilar soni	Izoh
	kodi	nomi						
1								
2								
3								
...			...	...				
			Jami					

14-namunaviy jadval:

**Ta'lim tashkilotining bino va inshootlari to'g'risida
MA'LUMOT**

T/p	Faollar zali	O'quv amaliyot ustaxonalari soni	Amaliyot poligoni maydoni (ga)	Sport zallari soni	Sport maydonchalari soni
1					
2					

15-namunaviy jadval:

Ta'lim dasturini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar

REJASI

T/r	Aniqlangan kamchilik/takomillashtirish tashabbusi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas'ul bo'linma yoki shaxs	Kutilayotgan natija
1.					
2.					
3.					
4.					

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida" O'RQ-637-son qonuni. *Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03/20/637/1313-son.*
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-158-sonli Farmoni. *Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 21.10.2024-y, <https://lex.uz/docs/7166588>*
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PF-76-sonli Farmoni. *Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 06.05.2025-y, <https://lex.uz/docs/7513052>*
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-316-sonli Qarori. *Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 28.10.2025-y, <https://lex.uz/docs/7793420>*
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi "Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-190-sonli Farmoni. *Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 28.10.2025-y, <https://lex.uz/docs/-7792559>*
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 498-son qarori. *Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.08.2025-y, <https://lex.uz/docs/-7671324>.*
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi direktorining 2025-yil 14-noyabrdagi "Kasbiy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda baholash mezonlari bo'yicha indikatorlarni tasdiqlash haqida"gi 3-son buyrug'i (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 1-dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3717 <https://lex.uz/docs/-7869448>*).

[illegible]



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI

TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI

Murojaat uchun

- +998 55 505 30 30
- www.nqaae.uz
- info@nqaae.uz
- 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani,
Universitet ko'chasi, 7-uy.